**Abstract.** *The article analyzes modern methods and mechanisms for protecting industrial property objects, their practical application, and transformation processes within the legal system. It also highlights the role of intellectual property protection in improving copyright, patent processes, expertise requirements, and competitiveness. International experience on the topic has been studied, and conclusions have been formulated regarding the future development trends of protection mechanisms. Furthermore, the work analyzes issues regarding the digitalization of industrial property objects, the implementation of electronic application systems, and the improvement of judicial practice in the field of intellectual property. The importance of effective protection of industrial property in increasing investment attractiveness in the context of an innovative economy is revealed, and the need to harmonize national legislation with international standards is substantiated.*

**Keywords:** *industrial property, patent, intellectual property, protection mechanisms, copyright, development trends*

### Kirish

Bugungi bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan davrda innovatsiyalar, texnologik yangiliklar va ijodiy ishlanmalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sanoat mulki obyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har qanday ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasi o'z muallifi uchun yuksak iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy qiymatga ega. Demak, ushbu obyektlarni muhofaza qilish usullari va mexanizmlari hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini takomillashtirish jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi zaruriy vositadir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tizimi sezilarli darajada takomillashtirilmoqda. Xususan, patentlar, foydali modellar va sanoat namunalari bo'yicha milliy qonunchilik xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda. Ushbu jarayon innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Intellektual MulK Tashkiloti (WIPO) tomonidan e'lon qilingan Global innovatsiyalar indeksiga ko'ra, O'zbekiston 2024-yilda 133 davlat orasida 83-o'rinni egalladi. Shuningdek, mamlakat innovatsion rivojlanish darajasiga nisbatan yuqori samaradorlik ko'rsatgan davlatlar qatoridan joy oldi. Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekistonning innovatsion ekotizimi va intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlari izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. E'tiborlisi, 2015-yildan buyon mamlakat ushbu reytingda qariyb 40 pog'onaga yuqoriladi (Innovative Development Agency, 2024).

Sanoat mulkini muhofaza qilish innovatsiyalarga bo'lgan eksklyuziv huquqlarni ta'minlash, biznes o'sishini rag'batlantirish va bozor drayverlari sharoitida raqobatbardoshlikni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon kontrafakt (qalbaki) mahsulotlar ishlab chiqarilishining oldini oladi, brend obro'sini himoya qiladi, nomoddiy aktivlar qiymatini oshiradi hamda qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki beradi (Ugoeze, 2025).

Shuningdek, mazkur tizim xalqaro savdo va global hamkorlikni rivojlantirishda yetakchi o'rin tutadi; zero, patentlar orqali sanoat mulkini eksport qilish osonlashadi va xorijiy kompaniyalar bilan sheriklik aloqalarini o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Ixtiro, foydali model va sanoat namunalarini huquqiy himoya qilishning xalqaro miqyosdagi ahamiyati, eng avvalo, 1883-yilda qabul qilingan Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasida e'tirof etilgan. Bugungi kunda ushbu fundamental xalqaro-huquqiy hujjat ijrosi Intellektual MulK Tashkiloti tomonidan muvofiqlashtirib boriladi (World Intellectual Property Organization, 1883, 2016).

Sanoat mulki obyektlarini (ixtiro, foydali model va sanoat namunasi) muhofaza qilish innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, bozorda raqobatdosh ustunlikni ta'minlash hamda ixtirochilarga o'z ijod mahsullariga nisbatan mutlaq huquqlar berish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu sohadagi zamonaviy mexanizmlar an'anaviy patentlash va tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishdan tortib, huquqbuzarliklarga qarshi raqamli texnologiyalar yordamida chora ko'rishgacha bo'lgan huquq qamrovini qamrab oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini tadqiq etish, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishning ustuvor tendensiyalarini aniqlashdir.

Tadqiqot vazifalari esa sanoat mulki obyektlarini muhofaza qilish mexanizmlarini atroflicha tahlil qilish, ularning amaliyotdagi samaradorligini baholash va mazkur sohani yanada rivojlantirish istiqbollari belgilashdan iborat.

Amaldagi tendensiyalar esa global intellektual mulk qonunchiligini mustahkamlash, raqamli iqtisodiyotda intellektual mulkni samarali boshqarish va uni himoya qilishda ilg'or texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan (Qin, 2024).

### **Asosiy qism**

O'zbekiston Respublikasida sanoat mulki obyektlarini himoya qilish usul va mexanizmlari bir nechta yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu usullar ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini qonuniy ravishda himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyida ushbu obyektlarni himoya qilishning asosiy usul va mexanizmlariga to'xtalib o'tamiz:

*Patentlash.* O'zbekiston Respublikasida yangi ixtirolar, sanoat namunalari va foydali modellarni patentlash orqali ularning huquqiy himoyasini ta'minlash mumkin. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga ko'ra, sanoat mulki obyektiga bo'lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo'ladi va patent bilan tasdiqlanadi. Sanoat mulki obyektining patenti sanoat mulki obyektini ustuvorligini, unga mualliflikni va patent egasining sanoat mulki obyektiga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Sanoat mulki obyektlariga berilgan patent quyidagilarni tasdiqlaydi: muallifni, patentlangan obyektini yaratgan shaxsni, bunday obyektning ustuvorligini, patent egasining muhofaza qilinadigan obyektga bo'lgan mutlaq huquqini va patent bilan ta'minlangan huquqiy himoya doirasini (Dyzhova, 2007).

Patentlar mulkdorlarga bir necha yil davomida, ya'ni amaldagi tartib bo'yicha ixtiroga 20 yil mobaynida, sanoat namunasi 10 yil mobaynida, foydali modelga esa 5 yil mobaynida amal qiladi. Ushbu patentlar egasining iltimosnomasiga ko'ra tegishli vakolatli organ tomonidan ixtiro va sanoat namunasi 5 yil, foydali modelga esa yana 3 yilga uzaytirib berilishi ham mumkin. Bu huquq orqali mulkdorlar boshqalar tomonidan uning sanoat namunasi ruxsatsiz foydalanilishini to'xtatish imkoniyatiga ega bo'ladi (Republic of Uzbekistan, 2002).

Ushbu amal qilish muddatlari Yevropa mamlakatlari bilan deyarli bir xil bo'lib, ba'zi davlatlarda biroz farq qilishi mumkin. Xususan, Yevropa patent konvensiyasiga a'zo davlatlarda ixtiroga 20 yil mobaynida, sanoat namunasi 5 yil (jami 25 yilga beriladi, har 5 yilda uzaytirib borish mumkin) mobaynida, foydali modelga esa 10 yil mobaynida amal qiladi (European Patent Organisation, 1973).

1883-yilgi Parij konvensiyasi ishtirokchi davlatlari sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha o'zaro maxsus bitimlar tuzish huquqini o'zlarida saqlab qoladilar, bunda tuziladigan bitimlar Parij konvensiyasi qoidalariga zid bo'lmasligi kerak (World Intellectual Property Organization, 1883).

Ixtiro, foydali model va sanoat namunalarining patentlari uchun amal qilish muddatlari turlicha bo'lishining sababi shuki, ularning huquqiy mazmuni, texnik darajasi, yaratilish murakkabligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bir-biridan farq qilishi bilan bog'liq (World Intellectual Property Organization, n.d.).

Ixtirolar odatda katta ilmiy izlanish, muhim texnik yangilik va iqtisodiy sarmoya talab qiladigan ishlanmalardir. Shuning uchun, ularga odatda 20 yil mobaynida himoya beriladi, bu esa muallif yoki

tadbirkorga kiritgan sarmoyasini qaytarib olish va daromad qilish imkonini beradi. Foydali model oddiyroq texnik yechim bo'lib, unda texnik yangilik mavjud bo'lsa-da, u ixtiro darajasiga yetmaydi va oddiy takomillashtirish, amaliy yechimlar shaklida bo'lganligi sababli nisbatan qisqa 5 yildan 8 yilgacha (Yevropa mamlakatlarida 10 yilgacha) muddatli himoya yetarli deb qaraladi.

Foydali modelning muhofaza muddati qisqa bo'lishiga qaramay, u bo'yicha patent olish jarayoni tezroq va arzonroq kechishi o'ziga xos afzallik hisoblanishini ta'kidlab o'tish joiz. Sanoat namunasi esa texnik emas, balki vizual, ya'ni estetik yechim bo'lib, obyektning tashqi ko'rinishi (shakli, naqshi, dizayni) himoyasini ta'minlaganligi sababli unga 10 yildan 15 yilgacha bo'lgan muddatga patent himoyasi beriladi. Fikrimizcha, sanoat namunasini muhofaza qilish muddatini Yevropa patent konvensiyasiga a'zo davlatlar tajribasidagi kabi 25 yilgacha uzaytirish o'zining ijobiy natijasini berishi mumkin. Zero, sanoat namunalari odatda tijorat muomalasida uzoq vaqt davomida foydalaniladi va bu holat huquq egasining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi va amaliyotda foydali bo'lgan ixtirolar, texnologik yechimlar hamda ilmiy ishlanmalar patentlanadi. Mahsulotning konstruktiv tuzilishiga kichik o'zgartirish va yangiliklar kiritishni nazarda tutuvchi texnik yechimlar, uslub yoki qurilmalar esa foydali model sifatida patentlanishi mumkin. Sanoat namunasi buyumning tashqi ko'rinishidagi yangi va original dizaynlarni himoya qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu usul quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi: yangi dizayn obyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali patent egasi uchinchi shaxslar tomonidan ushbu dizayndan ruxsatsiz foydalanilishini taqiqlash sohasida mutlaq huquqqa ega bo'ladi. Sanoat namunasi patentning ixtiro yoki foydali model patentlaridan asosiy farqi shundaki, u mahsulotning texnik yoki funksional xususiyatlarini emas, balki faqat uning estetik va tashqi ko'rinishini himoya qiladi.

*Sanoat maxfiyligi va raqobatbardoshlikni himoya qilish.* Agar bir korxonada sanoat mulki obyektlarini yaratilishi bo'yicha maxfiy ma'lumotlarga ega bo'lsa (masalan, ishlab chiqarish usullari), bunday ma'lumotlar maxfiy saqlanishi kerak. Ularning oshkor qilinishi raqobatni buzishi mumkin. Ushbu qonunbuzarliklarga nisbatan ma'muriy va fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida sanoat mulki maxfiyligi va raqobatbardoshlikni himoya qilish uchun bir qator huquqiy, institutsional va amaliy usullar qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik normalari orqali bunday turdagi mulklar huquqiy himoya qilinadi. "Raqobat to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, tijorat sirini ruxsatsiz olish yoki oshkor etish, boshqa korxonaning faoliyatiga xalaqit berish, mahsulot haqidagi noto'g'ri ma'lumot tarqatish taqiqlanadi.

Sanoat namunasi buyumning tashqi ko'rinishiga oid yangi va original dizayn yechimlarini huquqiy muhofaza qilishga mo'ljallangan. Bunda, yangi dizayn obyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali patent egasi uchinchi shaxslar tomonidan ushbu yechimdan ruxsatsiz foydalanishni taqiqlash bo'yicha mutlaq huquqni qo'lga kiritadi. Sanoat namunasi patentning ixtiro yoki foydali model patentlaridan konseptual farqi shundaki, u mahsulotning texnik yoki funksional xususiyatlarini emas, balki faqat uning estetik va badiiy-konstruktorlik shaklini himoya qiladi.

"Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, patent berish haqidagi talabnoma materiallaridagi ma'lumotlar Adliya vazirligi va tegishli davlat muassasasi tomonidan sir saqlanishi lozim. Mazkur ma'lumotlar talabnoma beruvchining yoki patent egasining roziligisiz uchinchi shaxslarga berilmaydi. Talabnoma materiallaridagi axborotni ixtiro haqidagi rasmiy ma'lumotlar yoxud foydali model va sanoat namunasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xabarlar rasmiy ravishda e'lon qilinguniga qadar oshkor etganlik qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

*Hukumat tomonidan ko'rsatiladigan yordam.* Sanoat mulki obyektlarini himoya qilishda hukumat tomonidan ko'maklashish va maslahatlar taqdim etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda institutsional, moliyaviy, rag'batlantiruvchi, tashkiliy, axborot-ma'rifiy va xalqaro hamkorlik doirasidagi qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshiriladi. Sanoat mulki obyektlari egalari yoki mulkdorlari uchun o'rgatish va huquqiy yordam turlari ham mavjud bo'lib, buning natijasida mazkur obyektlar himoyasi ta'minlanishiga yordam beriladi.

*Qonuniy choralar ko'rish.* Agar sanoat mulki huquqi buzilgan bo'lsa (masalan, patentni noqonuniy ravishda ishlatish), tegishli huquqiy jarayonlar orqali himoya qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki sud tizimi orqali himoya qilishning huquqiy mexanizmlari ham mavjud.

Ushbu usullar sanoat mulki obyektlarini himoya qilishning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, ular sanoat mulki obyektlari mulkdorlarining mulkiy huquqlarini himoya qilishga yordam beradi.

Sudlarda ko'rilayotgan ishlar statistikasi ko'rsatmoqdaki, sohadagi nizolar yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, Oliy sudan olingan ma'lumotga ko'ra, iqtisodiy sudlarda 2023-yilda shunday mazmundagi 94 ta ish ko'rilgan bo'lsa, 2024-yilda ular soni keskin kamayib, 25 tani tashkil etdi. Biroq 2025-yilning olti oyida 78 ta ish ko'rilgani nizolar soni yana keskin ortib borayotganini ko'rsatadi. Ma'muriy sudlarda ham intellektual mulkka oid ishlar muttasil o'sishda. Agar 2023-yilda 20 ta ish ko'rilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 30 taga yetdi. 2025-yilning yarim yilligida esa 15 ta ish qayd etilgan. Fuqarolik sudlarida ham intellektual mulk sohasidagi ishlar soni ko'paymoqda. 2023-yilda 28 ta, 2024-yilda 29 ta, 2025-yilning olti oyida esa 31 ta ish ko'rildi. Bu tendensiya fuqarolar va tashkilotlarning intellektual mulk huquqlarini sud orqali himoya qilishga intilishi kuchayganini yaqqol ifodalaydi (Komilov, 2025).

Sanoat mulki obyektlarini himoya qilish – bu nafaqat huquqiy zarurat, balki barqaror iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion muhit yaratish va adolatli raqobat tamoyillarini ta'minlash vositasidir. Ushbu mexanizmlarning samarali ishlashi natijasida nafaqat alohida mualliflar yoki kompaniyalar, balki butun jamiyat foyda ko'radi. Shu sababli, har bir davlat va fuqaro bu yo'nalishga jiddiy e'tibor qaratishi zarur.

Sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish masalalarini chuqurroq anglash maqsadida, o'z davrida mazkur soha va unga turdosh yo'nalishlarda tadqiqot olib borgan sivilist olimlarning ilmiy merosiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz mustaqillikka erishgunga qadar ham intellektual mulkning ayrim obyektlari bo'yicha tizimli izlanishlar olib borilganini kuzatish mumkin. Xususan, taniqli sivilist olim F. Sayfullayev (1988) kashfiyotchilik, ixtirochilik va mualliflik huquqi obyektlarining umumiy huquqiy asoslarini o'z darsligida batafsil bayon etgan.

2000-yilda yirik sivilist olim O. Okyulov (2001) tomonidan "Intellektual mulkning huquqiy maqomi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilindi. Intellektual mulk huquqi obyektlarini huquqiy himoya qilish masalalari yuzasidan "Innovatsiya rivojlanishini ta'minlashda intellektual mulk huquqi institutlari ta'siri samaradorligini oshirish masalalari", "Intellektual mulk va innovatsiya (Intellektual mulk huquqi institutlarining innovatsiya rivojlanishini ta'minlashdagi ta'sirini oshirishning moddiy va protsessual vositalari: milliy amaliyot va xorijiy tajriba) mavzusida monografiyalar nashr etilgan (Okyulov, 2016). Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning davomi sifatida N.F. Imomovning (2011) "Intellektual mulk huquqining yangi obyektlari" nomli monografiyasi ham chop etildi.

B. Toshev (2011) O'zbekistonda intellektual mulkni himoya qilish tizimini bosqichma-bosqich tahlil qilib, birinchi bosqichni 1991–1995-yillar, ikkinchi bosqichni – 1996–2002-yillar, uchinchi bosqichni esa 2003-yildan boshlanib, hozirgi davrni qamrab oluvchi va "Hamkorlar bilan ishlash davri" deb nomlanuvchi bosqich sifatida qayd etadi.

O'zbekistonda sanoat mulki obyektlarini huquqiy himoya qilish sohasida so'nggi yillarda bir qancha muhim rivojlanish tendensiyalari amalga oshirildi. Xususan, sohaga oid qonunchilik bazasi vujudga kelgan munosabatlarga mutanosib ravishda mustahkamlanib bormoqda. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganidan boshlab shu kunga qadar jami 13 marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ular mualliflar huquqini yanada aniqroq belgilashga va patent olish jarayonini soddalashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, sanoat mulkini raqamli platformalarda ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Bunday elektron platformalar ro'yxatdan o'tkazishning shaffofligi va tezkorligini ta'minlamoqda.

Sanoat mulkini boshqaruvchi idoralar faoliyatining takomillashuvi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Bu rivojlanish mamlakatda innovatsion iqtisodiyotga o'tish, sanoat mulki

huquqlarini himoya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyasiga mos ravishda olib borilmoqda. Bunda, Intellektual mulk markazi davlat muassasasining roli kuchaytirilib, xalqaro standartlarga mos xizmatlar ko'rsatish mexanizmlari joriy etilmoqda. Patent huquqlarining muhofazasi va mualliflar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha monitoring tizimi shakllanmoqda. Bundan tashqari, xalqaro integratsiya va hamkorlik darajasi ham rivojlanib, O'zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (*WIPO*) a'zosi sifatida xalqaro patent tizimlariga (masalan, PCT) qo'shilgan. Bunda bitimlar asosida chet elda sanoat mulki obyektlarini himoya qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Sanoat mulki obyektlarini himoya qilish tendensiyalarida ko'plab xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, innovatsiyalar iqtisodiyoti bo'yicha mutaxassis *Gaétan de Rassenfosse* patent tizimi ilmiy tadqiqotlar va texnologik rivojlanishni rag'batlantiruvchi muhim institut ekanligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, patent tizimi innovatsion faoliyatni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish va ilmiy ishlanmalarni iqtisodiy qiymatga aylantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, xorijiy olimlar sanoat mulkini himoya qilish tizimi tobora xalqaro tus olayotganini qayd etadilar. Global savdo va texnologiyalar almashinuvi kuchaygani sari davlatlar o'rtasida patent va tovar belgilarini xalqaro darajada himoya qilishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli Parij konvensiyasi, *TRIPS* bitimi va boshqa xalqaro mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ba'zi tadqiqotchilar intellektual mulk huquqlarining kuchli himoyasi doimo bir xil natija bermasligini ta'kidlaydi. Empirik tadqiqotlarga ko'ra, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda juda qat'iy patent himoyasi innovatsiya va eksport faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli davlatning patent siyosati mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va ichki bozor hajmiga mutanosib ravishda shakllantirilishi lozim (Auriol et al., 2023).

Zamonaviy tadqiqotlarda sanoat mulkini himoya qilish tizimi raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi muammolarni ham qamrab olishi kerakligi ta'kidlanadi. Masalan, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan ixtirolar yoki dizaynlar uchun mualliflik va patent huquqlarini aniqlash masalasi ko'plab mamlakatlarda huquqiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Shu sababli qonunchilikni yangi texnologiyalarga moslashtirish zarur deb hisoblanadi (Singh & Singh, 2026).

### **Xulosa**

Olib borilgan ilmiy tadqiqot va tizimli tahlillar natijasida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelindi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida sanoat mulki obyektlarini himoya qilish tizimi huquqiy, institutsional va tashkiliy jihatdan bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Xususan, patentlash tizimining joriy etilishi, sanoat mulkiga oid qonunchilik bazasining rivojlanishi, Intellektual mulk markazi faoliyatining takomillashuvi hamda elektron ro'yxatga olish tizimlarining joriy qilinishi ushbu sohaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning xalqaro intellektual mulk tizimlariga integratsiyalashuvi, jumladan, *WIPO* va boshqa xalqaro mexanizmlar bilan hamkorlik qilishi milliy sanoat mulki himoyasining xalqaro darajada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunchiligiga o'zgartirish kiritib, sanoat namunalari beriladigan patentning amal qilish muddatini xalqaro tajriba, xususan, Yevropa patent konvensiyasiga a'zo davlatlarda bo'lgani kabi 25 yilgacha uzaytirish maqsadga muvofiq. Bu mulkdorlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Sanoat namunalari bo'yicha patentlarning amal qilish muddatini uzaytirish yuzasidan vakolatli intellektual mulk organlari tomonidan monitoring va muddatni bosqichma-bosqich uzaytirish mexanizmini joriy etish, shuningdek, patent egalari uchun elektron murojaat tizimini takomillashtirish taklif etiladi.

Uchinchidan, sanoat mulki obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va huquqiy himoya qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish patent olish muddatlarining qisqartirilishi, talabnoma beruvchilar xarajatlarining kamaytirilishi hamda intellektual mulk obyektlarining tijoratlashtirilish samaradorligi oshirilishi asoslab berildi. Intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilikka patent, foydali model va sanoat

namunalariga oid barcha talabnomalarni elektron shaklda qabul qilish hamda ko'rib chiqish tartibini majburiy qo'llashga doir normalarni kiritish taklif etiladi. Amaliy ijro chorasi sifatida Yagona elektron patent platformasini yaratish, unda talabnoma topshirish, ekspertiza jarayonini kuzatish va davlat bojlari to'lovlarini onlayn amalga oshirish imkoniyatlarini joriy etish lozim.

Umuman olganda, sanoat mulki obyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish davlatning innovatsion rivojlanish strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimni yanada takomillashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish hamda ixtirochilarni rag'batlantirish kelgusida mamlakat iqtisodiyoti va ilmiy salohiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

## REFERENCES

- Auriol, E., Biancini, S., & Paillacar, R. (2023). Intellectual property rights protection and trade: An empirical analysis. *World Development*, 162, 106072. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2022.106072>
- Dyzhova, A. A. (2007). *Osnovy upravleniya intellektualnoy sobstvennostyu: konspekt lektsiy dlya studentov vseh spetsialnostey* [Fundamentals of intellectual property management: Lecture notes for students of all specialties]. Educational Institution Mogilev State University of Food Science.
- European Patent Organisation. (1973, October 5). *Convention on the Grant of European Patents (European Patent Convention)*. European Patent Office. <https://www.epo.org/en/legal/epc>
- Imomov, N. F. (2011). *Intellektual mulk huquqining yangi obyektlari [New objects of intellectual property law]*. TSIL Pub.
- Innovative Development Agency. (2024, September 30). *Global innovatsiyalar indeksining 2024-yilgi natijalari e'lon qilindi* [The results of the 2024 Global Innovation Index have been announced]. Innovation Development Agency under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation. <https://innovation.gov.uz/oz/news/post-1741>
- Komilov, K. (2025, October 23). *Intellektual mulk Konstitutsiya va sud himoyasida* [Intellectual property under constitutional and judicial protection]. Yuz.uz. <https://yuz.uz/uz/news/intellektual-mulk-konstitutsiya-va-sud-himoyasida>
- Okyulov, O. (2001). *Intellektual mulkning huquqiy maqomi* [Legal status of intellectual property] (Doctoral dissertation). Toshkent State Institute of Law.
- Okyulov, O. (2016). *Intellektual mulk va innovatsiya* [Intellectual property and innovation]. Turon Zamin Ziyo.
- Qin, H. (2024). *Intellectual property protection measures in the digital economy*. *Journal of Economics and Public Finance*, 10(3), 79–88. <https://doi.org/10.22158/jepf.v10n3p79>
- Republic of Uzbekistan. (2002, August 29). *Law "On inventions, utility models, and industrial designs" (No. LRU-789)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-76671>
- Sayfullayev, F. (1988). *O'zbekiston SSRning grajdanlik huquqi* [Civil law of the Uzbek SSR]. O'qituvchi.
- Singh, S., & Singh, M. (2026). Artificial intelligence and intellectual property rights: Comparative transnational policy analysis. *Journal of University Institute of Legal Studies*, 19(1), 182–208. <https://doi.org/10.2139/ssrn.5959195>
- Ugoeze, O. P. (2025, October). Challenges to protection of industrial property in Nigeria. *MSI Journal of Arts, Law and Justice*, 2(10), 1–11. <https://msipublishers.com/wp-content/uploads/2025/10/MSIJALJ1862025-GS.pdf>
- World Intellectual Property Organization. (1883, March 20). *Paris Convention for the Protection of Industrial Property*. <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/paris/>
- World Intellectual Property Organization. (2016). *Understanding industrial property*. [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo\\_pub\\_895\\_2016.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_895_2016.pdf)
- World Intellectual Property Organization. (n.d.). *Patents*. <https://www.wipo.int/en/web/patents>
- Toshev, B. (2021). *Intellektual mulk huquqiga oid qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiya qilishning nazariy hamda amaliy masalalari* [Theoretical and practical issues of systematization and codification of intellectual property legislation]. In *Intellektual mulk huquqi qonunchiligini takomillashtirish: nazariya va amaliyot muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari* (pp. 17–24). Yuristlar malakasini oshirish markazi.

**O'ZBEKISTON  
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL  
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN  
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL  
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.